



**AHOLI DAROMADLARI TARKIBINING O'ZGARISHI VA KAMBAG'ALLIK  
DARAJASINI QISQARTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI**

**Muxammedov Jasurbek Olloberdi o'g'li**

*Namangan davlat texnika universiteti magistranti*

*Email: [jasurmuxammedov22@gmail.com](mailto:jasurmuxammedov22@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari tarkibining o'zgarish tendensiyalari va mamlakatda kambag'allik darajasini qisqartirishning istiqbolli yo'nalishlari tadqiq etilgan. Muallif tomonidan aholi daromadlarining shakllanish manbalari, ularning turlari hamda tarkibiy transformatsiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, bandlikni ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish va inklyuziv iqtisodiy o'sish orqali kambag'allikni kamaytirishning strategik yo'llari yoritilgan. Tadqiqot yakunida aholi farovonligini oshirish va daromadlar tengsizligini yumshatishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *aholi daromadlari, daromadlar tarkibi, kambag'allik darajasi, kambag'allikni qisqartirish, bandlik, ijtimoiy himoya, inklyuziv o'sish, farovonlik.*

**Abstract:** *This article studies the trends in the structure of population incomes and promising directions for reducing poverty in the country in a market economy. The author analyzes the sources of population income formation, their types and structural transformations. The article also highlights strategic ways to reduce poverty through supporting vulnerable segments of the population, ensuring employment, developing entrepreneurship and inclusive economic growth. At the end of the study, scientific and practical proposals and recommendations were developed to improve the well-being of the population and mitigate income inequality.*

**Keywords:** *population income, income structure, poverty level, poverty reduction, employment, social protection, inclusive growth, prosperity.*

**Аннотация:** *В данной статье изучаются тенденции в структуре доходов населения и перспективные направления сокращения бедности в стране в условиях рыночной экономики. Автор анализирует источники формирования доходов населения, их виды и структурные преобразования. В статье также освещаются стратегические пути сокращения бедности путем поддержки уязвимых слоев населения, обеспечения занятости, развития предпринимательства и инклюзивного экономического роста. По итогам исследования разработаны научно-практические предложения и рекомендации по улучшению благосостояния населения и смягчению неравенства доходов.*

**Ключевые слова:** *доходы населения, структура доходов, уровень бедности, сокращение бедности, занятость, социальная защита, инклюзивный рост, процветание.*



## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv va transformatsiya jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi bosqichda aholi farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash har qanday davlatning strategik maqsadlaridan biri hisoblanadi. Aholi daromadlari va ularning tarkibiy o'zgarishlari mamlakatdagi iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy adolat va hayot sifatining eng muhim indikatoridir. Bozor munosabatlarning rivojlanishi, raqamli iqtisodiyotga o'tish va mehnat bozori arxitekturasining o'zgarishi aholi daromadlari tarkibining ham transformatsiyalashuviga olib kelmoqda. Xususan, an'anaviy ish haqi bilan bir qatorda tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar, mulkiy daromadlar va ijtimoiy transfertlarning ulushi o'zgarib bormoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiyot fanining mashhur namoyandalari A.Smit, A.Pigu, S. Fisher, M.Spens G. Basso, M. Dolls, S. Bexrendt, J. Berg, va boshqa uzoq xorijlik olimlarning asarlarida aholi daromadlarining shakllanishi va uning tabaqalanishining nazariy asoslari o'z ifodasini topgan<sup>1</sup>.

**TADQIQOTNING AMALIY AHAMIYATI.** Ishda keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalar aholi bandligini ta'minlash, kam ta'minlangan qatlamlarni maqsadli qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqishda, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida "Makroiqtisodiyot", "Ijtimoiy soha iqtisodiyoti" va "Mehnat iqtisodiyoti" kabi fanlarni o'qitishda uslubiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Turmush darajasini belgilashda ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar aholining yoshi, jinsi, ishchi kuchini takror ishlab chiqarishni ko'rsatadi. Iqtisodiy rivojlanish taraqqiyoti ijtimoiy soha rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, aholining demografik o'zgarishi, umr ko'rish davrini ham to'liq ifodalaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning ob'ektiv va sub'ektiv jihatlari aholi turmush tarzining hayot faoliyatidagi o'zgarishlarni asoslash zarurati bilan belgilanadi.

"Aholining daromadlarini tahlil qilish asosida "...aholi daromadlarini beshta sinfga bo'lib o'rganishimiz mumkin:

- ijtimoiy bandlikdan olingan daromad. Uni mehnat faoliyati yuritayotgan tashkilot yoki korxonadan olayotgan ish haqi tashkil qiladi.
- mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromad. Bu mustaqil ravishda tashkillashtirilgan va uy xo'jaligi a'zolari jalb qilingan mehnat jarayoni natijasida olingan daromadlar hisoblanadi o'z-o'zini band qilishdan olinadigan daromad. Ushbu daromad turiga yakka tartibdagi tadbirkorlar va fermerlarni, erkin kasbdagi shaxslarning daromadlarini kiritish mumkin.

<sup>1</sup> Smit A., Fridman DJ. Petti V., Rikardo D. Sochineniya // Klassika ekonomicheskoy mysli. - M.: EKSMO Press, 2000. - 164 s.; Pigu A. Ekonomicheskaya teoriya blagosostoyaniya / Pigu A.: V 2 t. - M.: Progress, T. 2 - 1985. - 240 s.; Fisher S. Dornbush R, Shimalenzi R. Ekonomika. M.: Delo LTD, 1995.-864 s. Doklad o roste. Strategii ustoychivogo rosta i inklyuzivnogo razvitiya // M.Spens, R.Solouidr. «VesMir», 2009. Basso. G., Dolls.M., Eichhorst W., Leoni.T., Peichl.A.,



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



- shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar. Bunga bozor uchun mo'ljallanmagan va uy-joy egalari tomonidan foydalanilayotgan turar-joy xizmatlarining shartli ravishda hisoblangan qiymati kiradi.

- mol-mulkdan olingan daromadlar (mulkiy daromadlar). Bu mulkiy egalik qilish huquqi bo'lgan moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarni boshqa shaxslarga foydalanish uchun berishdan uy xo'jaliklariga tushgan tushumlar tushuniladi. Molmulkdan olingan daromadlarga foizlar, dividendlar, ishlab chiqarilmagan aktivlardan foydalanish uchun renta to'lovlari, shuningdek, intellektual mulkdan foydalanganlik uchun mualliflik haqi ko'rinishidagi tushumlar kiradi.

Shu bilan birgalikda aholi daromadlarini oshirishda tomorqa xo'jaligi o'ziga xos iqtisodiy vazifani bajarib, uy xo'jaliklari ixtiyoriga nobozor daromadlari ham kelib tushadi. Bu daromadlarni bozor qonunlari emas balki ijtimoiy nuqtai- nazardan insonparvarlik munosabatlari ham ifodalanadi. Odatda uy xo'jaliklari ham joriy pul daaromadlari, ham iqtisodiy salohiyatning tarkibiy bir qismi sifatida moddiy aktivlar bilan ta'minlanganlikdir. Bu aktivlar o'z navbatida uy xo'jigi daromadi bilan iste'mol darajasi o'rtasidagi uzoq muddatli aloqalarni ifodalaganligi, ijtimoiy jihatdan tabaqalanish va turmush darajasini ifodalochi muhim indikator bo'lib, zamonaviy sharoitlarda yangi makroiqtisodiy sharoitlarga tezda moslashuvchanligi nuqtai-nazardan strategik resurslar tarkibiga kiradi. Uy xo'jaliklarining umumiy daromadiga pul, natural, tushumlar kiritilib doimiy asosda takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lib o'z-o'zicha oddiy ko'rinishda bo'lmay balki murakkab jarayon hisoblanadi.

Mamlakatda kambag'allik darajasining bosqichma-bosqich kamayishi iqtisodiy o'sish, aholi daromadlari oshishi va ijtimoiy dasturlar samaradorligidan dalolat beradi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

**O'zbekiston Respublikasida 2010-2024 yillarda aholi soni va kam ta'minlangan aholining ulushi o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi<sup>2</sup>**

Yillar	Aholi soni, mln.so'm	Yillar	Kam ta'minlangan aholi ulushi, %
<b>2010</b>	29,1	2010	<b>17,7</b>
<b>2011</b>	29,5	2011	<b>16,0</b>
<b>2012</b>	30,0	2012	<b>15,0</b>
<b>2013</b>	30,5	2013	<b>14,1</b>
<b>2014</b>	31,5	2014	<b>13,3</b>
<b>2015</b>	32,1	2015	<b>12,8</b>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



<b>2016</b>	32,6	2016	<b>12,3</b>
<b>2017</b>	33,2	2017	<b>11,9</b>
<b>2018</b>	33,9	2018	<b>11,4</b>
<b>2019</b>	34,2	2019	<b>11,0</b>
<b>2020</b>	34,5	2020	<b>11,5</b>
<b>2021</b>	35,2	2021	<b>17,0</b>
<b>2022</b>	36,0	2022	<b>14,1</b>
<b>2023</b>	36,4	2023	<b>11,0</b>
<b>2024</b>	<b>36,8</b>	<b>2024</b>	<b>8,9</b>

Mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan davlat siyosati doirasida bir qator ustuvor strategik vazifalar belgilangan bo‘lib, ular kompleks va tizimli yondashuv asosida amalga oshirishni nazarda tutadi. Jumladan, quyidagi yo‘nalishlar alohida ahamiyat kasb etadi:

1. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish asosida, xususan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

2. Kambag‘allikka qarshi kurashishda kompleks va innovatsion yondashuvlarni joriy etish, jumladan xalqaro ekspertlar ishtirokida chuqur tahlillar asosida aholining asosiy ehtiyojlarini kafolatli ta‘minlashga xizmat qiluvchi “minimal iste‘mol xarajatlari qiymati” konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etish.

3. Mahalla darajasida ehtiyojmand aholini aniqlashning aniq va shaffof mexanizmlarini shakllantirish hamda ularning ijtimoiy holatini hisobga olgan holda manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yo‘lga qo‘yish.

4. Hududlarning tabiiy, mehnat, iqtisodiy va infratuzilmaviy salohiyatini kambag‘allikni qisqartirish jarayoniga faol safarbar etish mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

5. Yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunarga tayyorlash, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirish orqali bandligini ta‘minlash, barqaror daromad manbalarini yaratishning yangi institutsional mexanizmlarini joriy etish.

Q.X.Abdurahmonovning fikricha, “Turmush darajasini belgilaydigan asosiy ko‘rsatkichlar tizimiga bir qator ko‘rsatkichlar kiradi. BMTning turmush darajasi ko‘rsatkichlari tizimiga 12 ta asosiy ko‘rsatkichlar guruhi kiradi. Birlashgan millatlar tashkilotining tavsiyasiga ko‘ra, tug‘ilish, o‘lim, umr ko‘rish davomiyligi, sanitar-gigienik sharoitlarning mavjudligi, oziq-ovqat mahsulotlarining iste‘mol darajasi, uy-joy sharoitlari, ta‘lim olish va madaniy imkoniyatlarning mavjudligi, ish sharoitlari va aholini ish bilan bandlik darajasi, daromadlar va xarajatlar muvozanati, iste‘mol narxлари, transport vositalari bilan ta‘minlanganligi, dam olish va hordiq chiqarish imkoniyatlarining mavjudligi, ijtimoiy ta‘minot tizimining mavjudligi, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanganligi kabi ko‘rsatkichlar turmush darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Lekin bu ko‘rsatkichlarning barchasini ham qiymat ko‘rinishida baholashning imkoni bo‘lmaganligi



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



sababli, ushbu parametrlardan bir nechtasini qamrab olgan holda turmush darajasi baholanadi. Ushbu ko‘rsatkichlardan eng asosiysi aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar hajmi bo‘lib, mazkur ko‘rsatkich mamlakat aholisi turmush darajasini baholash bilan birga, xalqaro taqqoslashlarda ham foydalanish imkonini beradigan ko‘rsatkich hisoblanadi. Shu bilan birga, amaliyotda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy daromad, inson taraqqiyoti indeksi, aho-lining ma‘lum guruhlari (kvintel, desil guruhlari) bo‘yicha tabaqalanish koeffitsientlari kabi ko‘rsatkichlar ham tez-tezuchrab turadi”<sup>3</sup> Iqtisodiy taraqqiyot resurslar shakllanishi va ularning hududlar kesimida samarali taqsimlanish imkoniyatlarini kengaytirar ekan, bu jarayon ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, bandlik darajasini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish va inson kapitalini mustahkamlash kabi muhim omillarning faollashuviga xizmat qiladi.

Hududlarning rivojlanish xususiyatlari hamda mavjud iqtisodiy salohiyatini inobatga olgan holda, aholi daromadlarini oshirish va turmush farovonligini yuksaltirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, mamlakatning barcha mintaqalarida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, kichik biznes va xususiy sektor subyektlariga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning faoliyatiga to‘sqinlik qilayotgan ortiqcha byurokratik to‘siqlarni izchil bartaraf etish zarur. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tanqidiy tahlil qilish, ularning amaliy samaradorligini oshirish orqali tadbirkorlik muhitining barqarorligini yanada mustahkamlash muhim strategik vazifa hisoblanadi.

Bundan tashqari, kichik biznes subyektlarining kredit resurslari, xomashyo bazasi hamda davlat xaridlari tizimidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ularning moliyaviy va ishlab chiqarish barqarorligini mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Ularning eksport salohiyatini oshirish uchun zarur tashkiliy, huquqiy va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish ham muhim ustuvor vazifalardan biridir. Ayniqsa, qishloq hududlarida yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, ko‘plab yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda ishlab chiqarish sohasiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish orqali hududiy bandlik darajasini oshirishga erishish mumkin.

Kambag‘allik va daromadlarning tabaqalashuvini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash, daromadlar o‘shishini va xarid qobiliyatini oshirishda Iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, daromadlarni oshirish asosida kambag‘allikni qisqartirishda quyidagi asosiy dastaklarni 3.4-rasmda umumlantirilgan. Aholi daromadlarini oshirish munosib turmush darajasini ta‘minlashda yetakchi iqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois daromadlar o‘shishining asosiy omillari va ularning shakllanish xususiyatlarini aniqlash, daromad hosil bo‘lish jarayonida yuzaga keladigan asosiy iqtisodiy ziddiyatlarni chuqur tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishning ilmiy asoslangan yo‘llarini ishlab chiqishga ustuvor ahamiyat

---

<sup>3</sup> Q.Abdurahmonov Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashri. T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «fAN» nashriyot davlat korxonasi, T.: 2019. – 386 b






# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



qaratish zarur.



**1-rasm. Iqtisodiy o‘rshni ta‘minlash, daromadlarni oshirish asosida kambag‘allikni qisqartirish vositalari<sup>4</sup>**

Hozirgi bosqichda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar safiga tushib qolishining oldini olishda bandlikni ta‘minlash ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy vazifa sifatida qaralmoqda. Ushbu yo‘nalishda tadbirkorlik faoliyati, oilaviy biznes va o‘z-o‘zini band qilishning zamonaviy shakllarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholi daromadlarining barqaror o‘rshini ta‘minlashga erishilmoqda. Xususan, mehnat faolligini rag‘batlantiruvchi moliyaviy, tashkiliy va institutsional shart-sharoitlarning yaratilishi hududlarda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

## 2-jadval

**Aholi daromadlari tarkibiy qismlarining o‘zgarish tendensiyalari va kambag‘allikni qisqartirishdagi roli tahlili<sup>5</sup>**

T/r	Daromadlar tarkibiy qismlari (Struktura)	Joriy tendensiyalar (O‘zgarish yo‘nalishi)	Kambag‘allik darajasini qisqartirishga ta‘siri	Istiqbolli strategik chora-tadbirlar
1.	Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (Ish haqi)	Yalpi daromadlardagi ulushi yuqoriligicha qolmoqda, biroq rasmiy va norasmiy sektor o‘rtasida tabaqalanish mavjud.	<b>Yuqori.</b> Barqaror ish haqi oilalarni kambag‘allik tuzog‘idan olib chiquvchi asosiy drayverdir.	Mehnat unumdorligini oshirish, norasmiy bandlikni leqallashtirish va minimal ish haqi miqdorini

<sup>4</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



				inflyatsiyaga moslab borish.
2.	<b>Tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar</b>	Kichik biznes va o'zini o'zi band qilish hisobiga ushbu manbaning ulushi barqaror o'sib bormoqda.	<b>Juda yuqori.</b> Aholini nafaqat daromad bilan ta'minlaydi, balki qo'shimcha ish o'rinlari yaratadi.	Oilaviy tadbirkorlikni mikrokreditlash, xotin-qizlar va yoshlar startaplarini subsidiyalash, soliq imtiyozlari berish.
3.	<b>Mulkiy daromadlar (Dividend, foizlar, ijara)</b>	Faqat yuqori va o'rta qatlamda o'sish kuzatilmoqda, kam ta'minlangan aholi guruhlarida deyarli mavjud emas.	<b>Past.</b> Daromadlar tengsizligini (Djini koeffitsiyentini) oshirishga xizmat qilishi mumkin.	Kam ta'minlangan aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va ularni mikromoliya bozoriga jalb etish.
4.	<b>Ijtimoiy transfertlar (Pensiya, nafaqa, stipendiyalar)</b>	Davlat ijtimoiy dasturlari va "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" orqali maqsadli yo'naltirilishi kuchaymoqda.	<b>O'rta-yuqori.</b> Kambag'allikning eng quyi darajasini joriy pasaytirishda va keskin inqirozlardan himoya qilishda muhim.	Nafaqalarni "boqimandachilik" kayfiyatini uyg'otmaydigan qilib, faqat manzilli taqsimlash va ularni mehnat motivatsiyasi bilan bog'lash.
5.	<b>Xorijdan kelayotgan pul o'tkazmalari (Remittanslar)</b>	Tashqi mehnat migratsiyasining diversifikatsiyalashuvi hisobiga barqaror oqim saqlanib qolmoqda.	<b>O'rta.</b> Uy xo'jaliklarining joriy iste'molini qo'llab-quvvatlaydi, biroq tashqi omillarga bog'liqlikni oshiradi.	Migrantlar mablag'larini oddiy iste'moldan investitsion yo'nalishlarga (kichik ishlab chiqarish, xizmatlar) o'tkazish





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



				mexanizmlarini yaratish.
--	--	--	--	--------------------------

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aholi daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyati va malakali mehnatdan olingan daromadlar ulushining ortishi kambag‘allikni qisqartirishning eng barqaror va samarali yo‘lidir. Ijtimoiy transfertlar va tashqi pul o‘tkazmalari kambag‘allik darajasini pasaytirishda tezkor (taktik) samara bersa-da, uzoq muddatli (strategik) istiqbolda aholini kasb-hunarga o‘qitish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va bandlik sifatini oshirish (inklyuziv o‘shish) hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ayni paytda kichik biznes va tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning tayanch yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralib, ushbu sohada kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatini samarali tashkil etish hamda boshqarishda bir qator ustuvor tamoyillarga amal qilish zarur. Jumladan, har bir hududning iqtisodiy rivojlanish darajasi, tabiiy resurs salohiyati, ijtimoiy muhit hamda demografik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish asosida kichik biznes subyektlarini oqilona joylashtirish va bandlikni mutanosib ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Kichik va o‘rta biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amaliyotga izchil tatbiq etish ularning raqobatbardoshligini kuchaytiradi hamda bozor sharoitida barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi. Ayniqsa, hududlarda aholining daromadlari darajasi va to‘lov qobiliyatini kichik biznesni rivojlantirish orqali oshirish mahalliy mehnat bozorida bandlik ko‘rsatkichlarini yaxshilashning muhim instrumentlaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, kichik va o‘rta biznes subyektlarining mahalliy xomashyo asosida mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish ulushining ortishi hududlar iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash bilan birga barqaror iqtisodiy o‘shish uchun mustahkam zamin yaratadi.

### **XULOSA**

Milliy rivojlanishning yangi davrida aholi daromadlarining shakllanishi va tabaqalanish darajasini qisqartirishning ustuvor yo‘nalishlari tadqiq qilinib, O‘zbekistonda aholi daromadlarini oshirish va tabaqalanish darajasini qisqartirishda tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘nalishlari ilgari surilgan.

Mamlakatimizda ham keyingi yillarda tadbirkorlik sub’ektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘rsatish lozim, zero, birgina 2024 yilning o‘zida tadbirkorlar faoliyatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun beshta qonun, yuzdan ortiq farmonlar va qarorlar qabul qilindi va natijada 2018 yilda 56,8 %, 2023-yilda 52,3 %, 2024- 53,5 % ni tashkil etdi.

Prognozga ko‘ra, 2030 yilda 2023 yilga nisbatan aholi umumiy daromadlari hajmi 30%, ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 18,2%, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmi 34%, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 29,6%, o‘rtacha hisoblangan oylik ish haqi 27,7%, Yalpi ichki mahsulot hajmi 28,6% oshishiga erishiladi. Olib borilgan tadqiqotlarga





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



asosanib, tadbirkorlik faoliyatining sifat darajalarini uning iqtisodiy nafliligi va darajasini miqdoriy o'lchash yo'li bilan aniqlashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining hududiy jihatdan guruhlashda quyidagi mezonlar bo'yicha tabaqalanishiga ta'sir ko'rsatuvchi taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muhammadjonov, B. Iqtisodiy Tarmoqlarni Rivojlantirishda Investitiya Jalb Qilishning Mexanizmlarini Takomillashtiish. Green Economy and Development, 3(12), 668385.
2. Ganiev, M. K. (2021). THE INTRODUCTION OF THE IRON BOOK, WOMEN AND YOUTH BOOKS AS AN IMPORTANT ASPECT OF THE FIGHT AGAINST POVERTY. In Актуальные вопросы современной науки и образования (pp. 59-61).
3. Ganiev, M. K. (2021). THE INTRODUCTION OF THE IRON BOOK, WOMEN AND YOUTH BOOKS AS AN IMPORTANT ASPECT OF THE FIGHT AGAINST POVERTY. In Актуальные вопросы современной науки и образования (pp. 59-61).
4. Khalilovich, G. M. (2025). Income Stratification of the Population and Opportunities to Increase Incomes. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 49, 45-49.

